

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2026 Vol. 1**

**tsuull.uz**

**goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

2026 Vol. 1

[tsuull.uz](http://tsuull.uz)

[goldenscripts.tsuull.uz](http://goldenscripts.tsuull.uz)

|                                          |  |
|------------------------------------------|--|
| <b>BOSH MUHARRIR</b>                     |  |
| Shuhrat Sirojiddinov                     |  |
| <br><b>BOSH MUHARRIR<br/>O'RINBOSARI</b> |  |
| Karomat Mullaxo'jayeva                   |  |
| <br><b>MAS'UL KOTIB</b>                  |  |
| Ozoda Tojiboyeva                         |  |
| <br><b>TAHRIR HAY'ATI</b>                |  |
| Karl Rayxl (Germaniya)                   |  |
| Isa Habibeyli (Ozarbayjon)               |  |
| Seyhan Tanju (Turkiya)                   |  |
| Almaz Ulvi (Ozarbayjon)                  |  |
| Benedek Peri (Vengriya)                  |  |
| Vahit Turk (Turkiya)                     |  |
| Teymur Kerimli (Ozarbayjon)              |  |
| Eunkyung Oh (Koreya)                     |  |
| Nazef Shahrani (AQSh)                    |  |
| Boqijon To'xliyev                        |  |
| Muhammadjon Imomnazarov                  |  |
| Bilol Yujel (Turkiya)                    |  |
| Qosimjon Sodiqov                         |  |
| Zulxumor Xolmanova                       |  |
| Mustafa O'ner (Turkiya)                  |  |
| Nurboy Jabborov                          |  |
| G'aybulla Boboyorov                      |  |
| Kimura Satoru (Yaponiya)                 |  |
| Imran Ay (Turkiya)                       |  |
| Aftondil Erkinov                         |  |
| Nadir Mamadli (Ozarbayjon)               |  |
| Rashid Zohidov                           |  |
| Otabek Jo'raboyev                        |  |
| Bulent Bayram (Turkiya)                  |  |
| Qo'ldosh Pardayev                        |  |
| Nodirbek Jo'raqo'ziyev                   |  |
| Oysara Madaliyeva                        |  |
| Hilola Nazirova                          |  |

|                                                                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>MUNDARIJA</b>                                                                                                                                                    |     |
| <b>MATNSHUNOSLIK</b>                                                                                                                                                |     |
| <b>Saidakbar Muhammadaminov</b><br>Junglarning genezisi va regional<br>xususiyatlari: adabiy to'plamdan fatvolar<br>majmuyiga qadar                                 | 4   |
| <b>Ozoda Tojiboyeva</b><br>"Favoyid ul-kibar"dagi farqli baytlar<br>xususida                                                                                        | 23  |
| <b>Sohiba Madirimova</b><br>Avaz O'tar qo'lyozma devonlari tavsifi                                                                                                  | 37  |
| <b>Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev</b><br>Klassik Şərq İrsinin Vizual Təqdimatında<br>Or. 2265 “Xəmsə” Əlyazmasının Yeri və<br>Nizami Gəncəvinin Mədəni Fəlsəfəsi | 64  |
| <b>Gulzira G'iyosiddinova</b><br>Ojiz devoni qo'lyozmalari tavsifi                                                                                                  | 77  |
| <br><b>LINGVISTIKA</b>                                                                                                                                              |     |
| <b>G'aybulla Boboyorov</b><br>Oltinko'l bitiktoshlari: eski turkcha<br>so'zlarning o'zbek tilida saqlanish holati                                                   | 94  |
| <b>Jo'ra Xudoyberdiyev</b><br>Chig'atoy tiliga oid ayrim mulohazalar                                                                                                | 114 |
| <b>Tünzalə İsmayılova</b><br>XIV – XV əsr qipçaq lüğətlərinə ümumi<br>baxış                                                                                         | 135 |

**EDITOR IN CHIEF**

Shuhrat Sirojiddinov

**DEPUTY EDITOR IN CHIEF**

Karomat Mullakhojaeva

**EXECUTIVE SECRETARY**

Ozoda Tojibaeva

**EDITORIAL BOARD**

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

**CONTENTS****TEXTOTOLOGY****Saidakbar Muhammadaminov**

The Genesis and Regional Features of Jong Collections: From Literary Anthology to Compendium of Fatwas 4

**Ozoda Tojiboyeva**

Regarding the Different Couplets in the Manuscript Sources of "Favoyid ul-kibar" 23

**Sohiba Madirimova**

Description of Avaz O'tar's Manuscript Divans 37

**Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev**

The Place of the Or. 2265 "Khamisa" Manuscript in the Visual Representation of Classical Eastern Heritage and the Cultural Philosophy of Nizami Ganjavi (Artificial Intelligence-Based Analysis) 64

**Gulzira Giyosiddinova**

Description of the Manuscripts of Ojiz's Divan 77

**LINGUISTICS****Gaybulla Boboyorov**

The Altin-Köl Runic Inscriptions: the State of Preservation of Old Turkic Words in the Uzbek Language 94

**Jura Khudoyberdiev**

Some Remarks on the Chigatai Language 114

**Tunzale Ismayilova**

General Overview of 14th-15th Century Kıpçak Dictionaries 135

## Chig'atoy tiliga oid ayrim mulohazalar

Jo'ra Xudoyberdiyev<sup>1</sup>

### Abstrakt

“Chig'atoy tili” tushunchasi bugungi o'zbek tilshunosligidagi “eski o'zbek tili”ga muvofiq keladi. Chig'atoy tiliga xos xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Bugungi kunda xorijiy ilmiy doiralarda, xorijda bo'lib o'tayotgan konferensiya, simpozium, seminar va boshqa anjumanlarda – tadqiqotlarda bu masalaga ko'p e'tibor qaratiladi, eski o'zbek tili degan ifoda deyarli qo'llanilmaydi. Aksariyat hollarda chig'atoy tili iborasining qo'llanishiga guvoh bo'lamiz. Xorijdagi “chig'atoy tili”, “chig'atoy adabiyoti” nomi bilan bog'liq masalalar o'rganilayotgan ilmiy ishlarda ushbu til va adabiyotning muhim xususiyatlari imkon doirasida xolis tadqiq etilganligini, to'g'ri xulosalar chiqarilganligini kuzatish mumkin.

Mazkur maqolada “chig'atoy tili”, “chig'atoy adabiyoti” bo'yicha o'zbek va xorijlik olimlarniing ayrim fikr-mulohazalari ilk bora tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** *chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti, Temuriylar davri, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Rui Gonsales de Klavixo, Ismoil Gaspirali, Qayum Nosiriy, Herman Vamberi, Yanush Ekman, Zaki Validiy To'g'on.*

### Kirish

Xorijda “chig'atoy tili” deb nomlangan til ham, “chig'atoy adabiyoti” deb nomlangan adabiyot ham mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonda “eski o'zbek tili” deb nomlanib kelinayotgan tilning, “mumtoz o'zbek adabiyoti” deb nomlangan adabiyotning aynan o'zidir. Ushbu davr tili va adabiyotining davrlashtirilishi, nomlanishi, xos xususiyatlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

XX yuzyillikning ikkinchi yarmidan “chig'atoy tili”, “chig'atoy adabiyoti”ga munosabat o'zgarib, salbiy baholash jarayonlari boshlangan. Jadidlar chig'atoychilikda ayblangan. Bunday holat mustaqillik davrigacha davom etgan. Ayrim o'zbek olimlari, oydinlari orasida tilimiz va adabiyotimizni “chig'atoy tili”, “chig'atoy adabiyoti” deb nomlanishiga e'tiroz bildirganlari, hatto “bunday til, umuman,

---

<sup>1</sup> Xudoyberdiyev Jo'ra Ochilovich – katta o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** jxudayberdi@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-5362-0356

**Iqtibos uchun:** Xudoyberdiyev, J.O. 2026. “Chig'atoy tiliga oid ayrim mulohazalar”. *Oltin bitiglar* 1: 114 – 134.

tarixda bo'lgan emas" degan xulosa chiqarganlari ham bor.

Bugungi kunda barcha xorijiy ilmiy doiralarda, xorijda bo'lib o'tayotgan konferensiya, simpozium, seminar va boshqa anjumanlarda, shuningdek, tadqiqotlarda, eski o'zbek tili degan tushuncha deyarli ishlatilmaydi. Aksariyat hollarda chig'atoy tili iborasi qo'llanadi. Xorijdagi "chig'atoy tili", "chig'atoy adabiyoti" nomi ostida berilayotgan tilimiz va adabiyotimiz haqidagi tadqiqotlarda tilimiz va adabiyotimizga xos xususiyatlar imkon doirasida xolis tadqiq etiladi, to'g'ri xulosalar chiqariladi. Tilimiz va adabiyotimizning tarixdagi yuksak mavqeiga xolis baho beriladi.

2004-yili Xitoyda chop etilgan Abdurahmon Po'latning "Chig'atoy uyg'ur tili haqida mufassal bayon" nomli 600 sahifalik kitobida esa chig'atoy tili asosan uyg'ur tili sifatida talqin qilinganini kuzatish mumkin.

Xorijdagi ko'pchilik tadqiqotlarda "chig'atoy tili" deb nomlangan til ham, "chig'atoy adabiyoti" deb nomlangan adabiyot ham mohiyat e'tibori bilan O'zbekistonda "eski o'zbek tili" deb nomlanib kelinayotgan tilning, "mumtoz o'zbek adabiyoti" deb nomlangan adabiyot ekanligi haqida fikr yuritiladi. Ushbu davr tili va adabiyotining davrlashtirilishi, nomlanishi, xos xususiyatlari bo'yicha hozirgacha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ayrim o'zbek olimlari, oydinlari orasida tilimiz va adabiyotimizni "chig'atoy tili", "chig'atoy adabiyoti" deb nomlanishiga e'tiroz bildirganlar, hatto "bunday til, umuman, tarixda bo'lgan emas" degan xulosa chiqarganlar ham bor.

### **Abdurauf Fitratning chig'atoy tili haqidagi qarashlari**

"Chig'atoy tili", "chig'atoy adabiyoti" iboralari XX yuzyillik boshlariga qadar o'zbek matbuotida, tadqiqotlarida faol ishlatilgan. Masalan, Abdurauf Fitrat o'zining bir qancha maqolalari, tadqiqot va chiqishlarida chig'atoy tili, chig'atoy adabiyotining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, muhim xususiyatlari, uning tarixda tutgan o'rni, qardosh tillarning shakllanishiga ta'siri, tarqalish hududlari haqidagi qarashlarini bayon etgan. Olim "Chig'atoy adabiyoti" nomli maqolasida chig'atoy nomining kirib kelishi, til va adabiyotning nomlanishiga shunday dalillar keltirgan:

"O'rta Osiyo adabiyotining "chig'atoy adabiyoti" atalishi Chingiz o'g'li Chig'atoyg'a nisbat bilandir. 1224-yilda Chingiz tomonidan bir qurultoy chaqirilib, o'lkasi o'g'illarig'a taqsim qiling'an edi. Bu vaqtdan boshlab bu o'lkani Chig'atoy o'lkasi, tilini Chig'atoy tili atadilarmi, yo'qmi? (Temuriylarg'acha buning shunday bo'lg'aniga oid bir sanad topolmadiq. Shunga tayanib professo'r Vamberi va

undan foydalanib professo'r Ubaydullin "O'rta Osiyo eli ham tili o'rtaosiyolilar tomonidan Chig'atoy ataladi. Bu ism ularga eronlilar tomonidan berildi", deganlar). To'g'ri, Chig'atoydan Temurg'acha bo'lgan bir asrda bu o'lkaning Chig'atoy, tilining chig'atoycha atalganini bilmaymiz. Lekin Temuriylardan keyin bu o'lkaning va tilining o'rtaosiyolilar tomonidan chig'atoycha atalganiga shubhamiz yo'q. Unga Lutfiyning she'ri, Navoiyning so'zlari, Muhammad Solih ham Majlis(iy) degan shoirning

**Navoiy:**

Ajam shuarosi har nechuk qoidakim afkorga zeb va oroyish ko'rguzib erdilar, chig'atoy lafzi bilan raqam urdim.

**Lutfiy:**

Sendek sanami ko'rmadi Lutfiy Chig'atoyda,  
Chin so'yla Xito xo'blariga ne bo'lursen?

**Muhammad Solih:**

Maskani Chig'atoyki kunduzi tundir anga,  
Ahvoli parishon qora kundir anga.  
Mag'rur bo'lib yer yuziga sig'mas edi,  
Sichqon teshuki emdi ming oltundir anga.

**Muhammad Solih:**

Bilki men barcha mushfiqdirmen,  
Barcha el birla muvofiqdirmen...  
Chig'atoy eli meni o'zbek demasin,  
Behuda fikr qilib g'am yemasin.  
Dedilar: "Sen Chig'atoy elisen,  
Ushbu yerda Chig'atoy, heylisen

Ne deb o'zbek bila yovoch bo'ldung?", so'zlari mung'a shohiddir. El bilan til chig'atoy atalg'ach, adabiyotningda chig'atoy atalishi shundan kelib chiqadir" [Фитрат 2000, 37 – 38].

Abdurauf Fitrat "Tilimizning tarixiy oqimi" nomli maqolasida ham ushbu masalaga to'xtalib, kengroq ma'lumot beishga harakat qilgan. Olimning fikricha, Shayboniylar Turkistonni egallagach, "chig'atoyliq unvoni oradan chiqarila boshladi. Buning joyig'a qabila unvonlari – xonlig', beklik unvonlari birlashdi. O'ruslar kelgandan so'ng sart unvoni umumlasha boshladi. Biroq "sart" so'zi (arablarning ajam so'ziga o'xshab) turk bo'lmaganlarga taqila kelgan edi. Milliy uyg'onishimizning boshida turg'anlar bu unvonni qabul etmadilar...

Buyuk inqilobdan keyin bu unvonsizliqdan qutulmoq ehtiyoji butun kuchi bilan o'zini ko'rsatdi. Har kim "Biz kim bo'lamiz?" deb o'z-o'zidan so'ray boshladi, **o'zbek** unvoni yararliq ko'rildi, qabul etildi, turli e'tirozlarga qaramasdan bu kun bu unvon hayotg'a

aralashib qoldi.

Biz mana shunday unvondan unvong'a og'darila turg'anda burung'i unvonimiz bo'lg'an "chig'atoy" so'zi adabiyotimizdagina o'z kuchini saqlab keldi, o'zimiz turkistonli, movarounnahrli, musulmon, sart bo'laturg'on paytlarda tilimiz "Chig'atoy tili", adabiyotimiz "Chig'atoy adabiyoti" bo'libgina qoldi" [Фитрат 2006, 172 – 173].

Ushbu parchada e'tibor qaratadigan jihat shundaki, hokimiyat shayboniylarga o'tgandan keyin chig'atoy so'zi iste'moldan chiqqan, keyinchalik rus bosqinidan keyin xalqimiz "sart" deb atala boshlangan. Bunday nomlanishga jadidlar qarshi turgan [Бехбудий 2021, 34 – 44]. 1917-yil to'ntarishidan keyin xalqimizga o'zbek nomi berilgan. Bunga turli e'tirozlar ham bo'lgan. Shunga qaramasdan, tilimiz "chig'atoy tili", adabiyotimiz "chig'atoy adabiyoti" deb nomlanishda davom etgan.

Abdurauf Fitrat shunday mulohazalaridan keyin "Bu "chig'atoy tili" qanday tildir? Turkchani qaysi shevasiga kiradi? Tarixi nechukdir?" degan savolni qo'yib, unga asosli javob izlaydi. Olim chig'atoy tilining ildizlarini Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asaridan topadi, undagi "xoqoniy turkchasi" deb nomlangan tilga borib taqalishini qayd etadi. Uningcha, "Qutadg'u bilig", "Hibbat ul-haqoyiq" asarlari ham xoqoniy turkchasida bitilgan. Bu til Ahmad Yassaviy hikmatlarida davom ettirilgan. Chig'atoy tilining tub ildizlari shunga borib taqaladi.

Tilning bunday nomlanishi esa Chingizxonning o'g'li Chig'atoyga borib taqaladi. Mazkur tilga xoqoniy turkchasidan keyin bir necha tillarning, ya'ni arab va fors tillarining ta'siri kuchayadi. Chig'atoy tilining leksik tarkibi shu xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu haqda Abdurauf Fitrat shunday yozadi:

"Yolg'iz turk dunyosidagina emas, Osiyoni qo'rqunch bir suratda qaynatib, titratib yuborg'an Chingiz istilosidan so'ng O'rta Osiyoda xon bo'lg'an Chig'atoyg'a nisbat berilib, O'rta Osiyo adabiy tiliga chig'atoy tili va u shevada yozilgan narsalarga, umuman, chig'atoy adabiyotining bir-biriga chog'ishtirib qarasoq xoqoniy turkchasining Chingiz chiqishi bilan boshqa shevalarga aralashib islom-eron ta'siri ostiga ham anchagina kira qolib chig'atoy unvonini olganini ko'rmak mumkundir" [Фитрат 2006, 174].

Abdurauf Fitrat chig'atoy adabiyotining birinchi asari Burxoniddin Rabg'uziyning "Qissas ul- anbiyo nomli asari til xususiyatlari jihatidan "Qutadg'u bilig", "Hibbat ul-haqoyiq" asarlariga yaqinligini qayd etadi. Alisher Navoiy davrida, chig'atoy tilida arab va fors tillaridan o'tgan so'zlar miqdorining ko'pligi,

shunga qaramasdan eski nufuzini yo'qotmasdan arab-fors adabiyoti bilan bellashib kelganligi, butun turk xalqlari yashaydigan hududlarga tarqalgani, qardosh xalqlar bu tilda asarlar bitganini shunday e'tirof etadi: "Chig'atoycha O'rta Osiyoda yashag'an turkiy qabila shevalarining hammasidan yuqori turg'an adabiy, rasmiy, baynal qabilaviy bir tildir. Navoiy kabi Chig'atoy shoirlari o'zlarining bu adabiy shevalariga sodacha "turkcha" otini berganlar. Chig'atoy adabiyotining eng birinchi asari sanalg'an Rabg'uziy "Qissas ul-anbiyo"ning shevasi "Qutadg'u bilig", "Hibbat ul-haqoyiq" kabi xoqoniy turkchasida yozilg'an kitoblarning shevasini eslatadi. Zotan, chig'atoy turkchasi o'zidan yuzlab yil burun hukm surgan bir adabiy shevani oz vaqtida tubdan yo'qotib, uning joyini o'zi ololmas edi.

Mana shu dalillarga tayanib ayta olamizkim, chig'atoy turkchasi, chig'atoy adabiyoti xoqoniy adabiyotning (Qashqardan Hirotg'acha bo'lg'an) yo'li uzun yili ko'p bir safar natijasida o'zgarib, islom-eron ta'siri ostida qolg'an ikkinchi bir shakldir.

Mana shunday bo'lib maydong'a chiqqan chig'atoy tili kun sayin eron, arab ta'sirlariga berilib musulmonlasha bordi. Navoiy zamonlarida esa emdi arab, fors so'zlariga to'lib qolg'an edi. Shunday bo'lsa ham eski nufuzini, eski kuchini yo'qotmadi. Arab-fors adabiyotidan qolishmoq istamay yurabardi. Yolg'iz O'rta Osiyoda emas, butun turk dunyosiga yoyildi. Totor tiliga bir ko'p yillar jon ozig'i bo'la keldi.

Usmonli va Ozarboyjon turklari ham bu adabiyot bilan mashg'ul bo'ldilar. Bu shevada she'rlar yozdilar, chig'atoy lug'atlari yasadilar [Фитрат 2006, 174 – 175].

Abdurauf Fitrat sharq adabiyoti, chig'atoy tili, chig'atoy adabiyotining tarixdagi yuksak mavqeyi, ahamiyati haqida, 1921-yili Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Til-imlo konferensiyasida ham alohida to'xtalib, shunday fikrlarni bayon etgan:

"Sharq adabiyotining hashamatli, rangli bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o'tkanda bu kungi Ovro'po adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadir. Shunga o'zini majbur ko'radir.

Sharq tarixi, adabiyoti – butun dunyo adabiyoti orasida singirsiz, misli yo'q bir bog'chadir.

Bu go'zal bog'chadagi gullarni saralab ko'rmakchi bo'lsak, birinchi sirada, birinchi qatorda arab ham eron gullarini, ikkinchi sirada esa, urdu ham turk chechaklarini ko'ramiz. Sharq tarix adabiyotida birinchilik arab-eron adabiyotiga, ikkinchilik esa urdu ham turk adabiyotiga berilgandir.

Sharq tarix adabiyotida ikkinchi o'rin tutqon turk

adabiyotining eng muhimi, eng ko'pi, eng qimmatlisi chig'atoy shevasidagi adabiyotdir...

Unda yuksak, oliy, san'atkor adabiyot bor! Chig'atoy tarix adabiyotida Boyqaro, Navoiy, Lutfiy, Umarxon, Fazliy kabi san'at dunyosida mo'jiza ko'rsatub, to'ponlar qilg'on qahramonlarg'a ko'b uchraymiz.

So'zning qisqasi: chig'atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o'runni tutqondir.

Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga ushoqliklari, buning shogirdliklari bilan maqtanib turalar...

Chig'atoy adabiyoti – turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo'lg'ondan keyin, chig'atoy tilining ham turk tillari orasida yuksak, yuqori, oliy bo'lg'onlig'in qabul etmak mutlaqo lozimdir...

Chig'atoy sarfi bilan tatar ham usmonli sarflarini siralab qarag'anda chig'atoychaning sarfda, ya'ni ishtiyoqda boylig'ini ko'ramiz...

Bunlardan boshqa turk tili, turk adabiyoti to'g'risida yozilg'on asarlarning har birini o'qug'onda "chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti – turk tillari va turk adabiyotining onasi, bobosidir" degan so'zlarga uchramoq mumkindir.

Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori bir o'runda turg'onidan tilimizning-da turk tillari orasida yuqori bir mavqe tutg'onini chiqarg'on kabi, bundan ikkinchi bir masala tug'adir: adabiyotimiz arab, fors adabiyotiga qarag'anda ikkinchi sirada ekan, tilimizda arab, fors tillarig'a qarag'anda ikkinchi sirada qolur(mi)?

Bunga javob beramiz: "Yo'q"! Tilimizdagi so'z boylig'i, ishtiyoq kengligi, qoida tugalligi, sarf-nahv ingichkalari boshqa sharq tillaridan qolishmas. Bu to'g'rilarda fors tilini butunlay keyinga qoldiradir" [Til va imlo qurultoyi... 1922, 35–36].

Abdurauf Fitratning yuqorida keltirilgan chig'atoy tili haqidagi qarashlarini umumlashtiradigan bo'lsak, bu tilning ildizlari "Devonu lug'atit-turk" asarida qayd etilgan xoqoniy tilga borib taqaladi. "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviyning hikmatlari tili ham xoqoniy tilning davomi. Chig'atoy tili esa ularning vorisidir. Chig'atoy tilida yozilgan dastlabki asar Burxoniddin Rabg'uziyning "Qissas ul-anbiyo"sidir. Bu til Alisher Navoiy davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Shu davrlardan boshqa qardosh tillarga ham ta'sir qildi, ularni har tomonlama boyitdi, rivojlantirdi, taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada chig'atoy tili umumturkiy til darajasiga ko'tarildi.

Xo'sh, Abdurauf Fitratning ushbu fikrlari asoslimi? Chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti xususiyatlarini o'rgangan, xususan, xorijlik olimlarlarning bu masalada qarashlari qanday?

### **Xorijlik olimlarning chig'atoy tili haqidagi qarashlari**

Turkologiyada eng ko'p o'rganilgan tillardan biri – chig'atoy tili, eng ko'p o'rganilgan adabiyotlardan biri – chig'atoy adabiyotining manbalaridir. Chig'atoy tili, chig'atoy adabiyotining muhim xususiyatlari, o'rni, ahamiyati kabi masalalarni turli davrlarda, turli davlatlarda yashab ijod qilgan, turli millat vakillari bo'lgan ko'plab xorijlik yetakchi olimlar tadqiq qilgan, hozirgacha o'rganib kelishmoqda. Hatto ijodiy faoliyatining asosiy qismini chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti tadqiqiga bag'ishlagan taniqli olimlar ham bor. Ularning bildirgan qarashlarida ham, tabiiyki, munozarali, bahsli yoki bugungi kunda birmuncha eskirgan, o'z qiymatini yo'qotgan fikrlar ham yo'q emas, albatta. Lekin, asosiysi, ular bu tilning, bu adabiyotning o'z paytida yuksak mavqega ega bo'lganini e'tirof etganlar. Shulardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Amir Temur bilan o'z vaqtida yuzma-yuz muloqotda bo'lgan yevropalik elchi Rui Gonsales de Klavixo chig'atoy tili va uning qo'llanishi haqida gapirib, Samarqand saltanatida yashovchilar chig'atoy tilida gaplashishi, Chig'atoyning o'limidan so'ng bu yerning tub aholisi chig'atoylar deb nomlangani hamda Amir Temurning chig'atoylarga mansubligini alohida ta'kidlaydi:

“Elchilar Termiz degan shaharga yetib keldilar. Shahar ilgari Kichik Hindiston qaramog'ida bo'lib, Temurbek zabt etgandan keyin bu shahar Samarqand saltanatiga qaraydi. Ana shu daryodan Samarqand saltanati boshlanadi. Bu yerdagilar chig'atoy tilida so'zlashadilar. ...“Chig'atoyning o'limidan so'ng bu yerning tub aholisi ularni chig'atoylar deb nomlashdi va bu nom shu davrga qadar ishlatilib kelingan. Mana shu chig'atoy qabilasiga Temurbek ham mansub edi” [Клавихо 2019, 106].

Jadidchilik harakati va jadidchilik harakati g'oyalarini targ'ib etgan “Tarjimon” gazetasining asoschisi Ismoil Gaspirali 1888-yili “Turkiy shevalarning kattasi to'rttadir: birinchisi va eskisi chig'atoy shevasi, so'ngra qozon shevasi, so'ngra ozarboyjon va usmonli shevalaridir” deb yozgan [Gasprinskiy 1888]. 1911-yili esa chig'atoy tili adabiy til ekanligi jahonga ma'lum, butun turk xalqlari adabiy tillarining qadimiy hamda manbasi ekanligini alohida qayd etadi: “Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo hududlarining shevalari eski chig'atoy shevasidir. Bu shevaning adabiy bo'lgani butun jahonga

ma'lumdur. Hatto turk adabiy shevalarining eng qadimiy va manbasi bo'lgani tilchilar orasida tasdiq etilgandir" [Gasprinskiy 1911].

Taniqli tatar ma'rifatparvari va tatar tili bo'yicha dastlabki asarlar muallifi Qayum Nosiriy tatar tilining kelib chiqishi to'g'risida "Zamonamizda tatar tili deyilgan tilimiz aslida chig'atoy tilining bir tarmog'i bo'lib, o'ziga xos qoidalari va usullari bo'lgan bir tildir" deb urg'ulab o'tgan [Хакоев 1972, 54–69].

Asli qrim tatarlaridan, Ukraina Fanlar akademiyasining tashkilotchilaridan biri, ukrain turkologiyasining asoschisi, taniqli olim A. Y. Krimskiy "Turklar, ularning tili va adabiyoti. I turkiy tillar" asarida XIII–XVIII yuzyilliklarda O'rta Osiyoda yaratilgan asarlarning barchasi chig'atoy tilida bitilganini e'tirof etgan [Кримский 1930, 176 – 183].

Fuod Ko'prulu "Turk adabiyoti tarixi" asarida chig'atoy tilining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, tarqalish hududi haqida shunday yozgan: "chig'atoycha deganimiz adabiy til, mo'g'ul istilosidan so'ngra, islom madaniyati ta'siri ostida shakllanib kelgan adabiy sharqiy turkchadirki, bunda Xorazm bilan Oltin O'rda-Qipchoq hududlarining nufuzi, Turkistonning g'arbiy va sharqiy hududlarining nufuzidan shubhasiz yanada ko'proq bo'lgandir. Bu til XIII yuzyillikning ikkinchi yarmidan va ayniqsa, XIV yuzyillikda Xorazm va Qipchoq hududlarida talab darajasida shakllanganidan so'ng, XV yuzyillikda Movarounnahr va Xurosonda eng mukammal tilga aylangan va yuzyillarcha Hazar dengizidan Kansuga qadar cho'zilgan keng turk hududining adabiy tili bo'lib kelgani kabi, hatto Eron, Ozarboyjon, Onado'li, Misr va Hindistondagi turk saroylarida ham buyuk bir mavqega ega bo'lgan [Köprülü 1980, 276].

Turk tillari tarixidagi yozma yodgorliklar til xususiyatlari, taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qilgan Ali Karaman o'g'li chig'atoy tili haqida shunday xulosaga kelgan:

"Chig'atoy tili bu davrda usmonli va ozoriy hududlaridan tashqari Sharqiy Turkiston va Hindistondan Qozon va Qirimga qadar butun turk dunyosining mushtarak yozuv tili holiga kelgan. Usmonli shoirlari orasida bir muddat chig'atoycha she'r yozish urf bo'lgan, madrasalarda chig'atoy tili o'rgatilgan. So'nggi vaqtlarda chig'atoy tilini "chig'atoy tilining ilk davri", "mumtoz chig'atoy tili" va "chig'atoy tilining so'nggi davri" kabi davrlarga ajratish odatga aylandiki, so'ngisi o'zbekcha, ya'ni o'zbek tilidir. Bu davrning oxirlarida va zamonaviy turk tili deb turganimiz yozuv tillarini shakllantirgan qozoq, qirg'iz va boshqa turk tillari bilan o'g'uzchadan ajralgan turkman tili ham aslida bir g'arb tili bo'lgani holda, jug'rofiy yaqinlik tomonidan

chig'atoy tilining ta'sirida shakllangandir" [Karamanlioglu 1986, 90].

G'arbiy Ovro'po, xususan, Vengriya turkologiyasining asoschisi sifatida e'tirof etilgan, O'rta Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, urf-odatları va tillariga oid asarlari bilan Ovro'po jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otgan olim Herman Vamberi XII yuzyillikdan XIX yuzyillikka qadar O'rta Osiyo mintaqasida yaratilgan yozma yodgorliklarning asosiy qismi chig'atoy tilida yozilganini ta'kidlaydi va "Chig'atoy tili darsligi"ning ikkinchi bo'limda Alisher Navoiy ijodiga yuksak baho berib, uning tili haqida "Hozirgi kunda Navoiy tili O'rta Osiyoning adabiy tiliga aylangan", deb yozadi [Нормурадов 1982, 19 – 24].

O'zbek tili va adabiyoti masalalari bilan maxsus shug'ullanib, bir qancha asarlar yozgan, o'zbek mumtoz adabiyotiga oid ko'plab manbalarni chop ettirgan turkolog Y. Ekman: "Chig'atoy tili, XI yuzyillikdan XIX yuzyillikning oxiriga qadar davom etgan O'rta Osiyo islom-turk yozuv tilining taraqqiyotidagi uchinchi bosqichni tashkil etadi. Xoqoniya (Qoraxonli) va Xorazm-Oltin O'rda yozuv tillarining davomi o'laroq, temuriylar davrida (1405-1502) shakllangan chig'atoy yozuv tili, ayniqsa, Navoiyning asarlarida mumtoz til shaklini egalladi. Chig'atoychaning mavqeyi yuzyilliklar bo'yicha buyuk edi: davlat, yozuv, hatto diplomatik til o'laroq yolg'iz O'rta Osiyo turk davlatlaridagina emas, Ovrupo Russeyasida yashagan va o'g'uz guruhidan boshqa musulmon turklarining ham yozuv tili bo'lib yuzyilligimiz boshlariga qadar qo'llangandir. Rus istilosidan (1866-yili Buxoro, 1873-yili Xiva, 1876-yili Qo'qon xonligining ishg'oli) so'ngra "sartcha" nomi bilan Turkistonda qo'llangan turk yozuv tili ham, asosida, mahalliy shevalarning biroz ta'siri ostida qolgan chig'atoychadan boshqa bir narsa emas. O'zbekistonda 1923-yili chig'atoycha o'rniga shaharlarda gaplashilgan shevalarga asoslangan o'zbek yozuv tiliga o'tilgandan so'ngra ham chig'atoycha tamoman yo'qolmadi: o'zbek yozuv tiliga bugun ham chig'atoychadan qolgan bir qancha arxaizmlar davom etmoqda" [Ekman 1958, 115 – 126; 1996, 133].

Atoqli olim, jahonning ko'plab akademiyalarining a'zosi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning yetakchi universitetlari faxriy professori Zaki Validiy To'g'on shunday yozadi: "O'n to'qqizinchi yuzyillikning o'rtalariga qadar Turkistonning har tarafida G'arbiy va Sharqiy Turkistonda, qozoq va qozon turklarining barchasida umumiy adabiy til sifatida chig'atoy tili qo'llanar edi. Turk hukumatlarining,

xonlarining, beklarining, aholisining ish muomala tili ham shu til edi. XVIII yuzyillikda Abdulmembat, Abdulxayr, Abilay va boshqa sultonlarning yozishmalari, shu yuzyillikda Turkistonning turli burchaklarida yozilgan boy yozma asarlar va amaldagi ish qog'ozlari vaqfnomalar, vasiqalarning barchasi bugun Turkiston, Sibir, Orenburg va Peterburg arxivlarida, xususiyl shaxslar qo'lida mavjud. XIX yuzyillikda Qoshg'arda Xo'ja va Yoqubbeklarning tarixiga oid yozilgan asarlar bilan Xivada Munis va Ogahiy kabi mualliflarning hamda Qozog'istonda Abilay va Bukey orasida, Jahongirxonning yozuvlarida qo'llangan til ayni tildir... Rus hukumatining XVI va hatto, XVIII yuzyilliklarda Sharq davlatlari bilan siyosiy munosabati "tatarcha" nom berilgan shu tilda (ya'ni chig'atoy tilida – J.X) bo'lardi. Chor Boris Godunov nomiga Ali Jaloyir tarafidan yozilgan turk tarixining tili Movarounnahr o'zbek sultonlari nomiga yozishmalari ham shu tilda bo'lgan edi.

Faqat XVIII va XIX yuzyilliklarda Turkistonni ruslar istilo etgandan so'ngra vaziyat o'zgardi. Umumiy adabiy tilning o'rniga qabila tillari qo'llandi" [Tog'an 1981, 486 – 487].

### **"Chig'atoy adabiyoti", "chig'atoy tili"ga qarshi kurashning boshlanishi va asosiy maqsadi**

Chig'atoy nomi bilan bog'liq "chig'atoy adabiyoti", "chig'atoy tili"ga qarshi kurash, bolsheviklar davrida, XX yuzyillikning 20-yillari o'rtalaridan boshlanib, 30-yillardan bu jarayon ancha keskinlashib, mustaqillik davrigacha tizimli ravishda olib borilganligini kuzatish mumkin.

Buning asosiy sababi shuki, XX yuzyillikning boshlaridan turk xalqlari ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi taraqqiyotga to'siq bo'lib turgan muammolarni aniqlab, ularning yechimiga qaratilgan islohotlarni boshlashdi. Bu jarayon, ayniqsa, ta'lim, til, adabiyot, madaniyat, tarixga bo'lgan munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbekistonda bunday muhim islohotlarning boshlanishi bevocita Mahmudxo'ja Behbudiy va uning maslakdoshlari faoliyati bilan bog'liq, albatta. Abdurauf Fitrat tomonidan 1918-yilning oxirida "Chig'atoy gurungi" nomli jamiyatning tuzilishi va uning faoliyati islohotlarni tizimli ravishda amalga oshirishda eng muhim hodisalardan biri bo'ldi deb aytish mumkin. Ushbu jamiyat Abdurauf Fitrat (– rais), Abdulqayum Ramazon, Saydalixo'ja, Mashriq Yunus, Shorasul Zunnun, Shokirjon Rahimiy, G'ulom Zafariy, Mirmulla Shermuhamedov, G'ozi Yunus, Cho'lpon, Botu, Sanjar Siddiq,

Mannon Ramiz, Mannon Uyg'ur, Mo'minjon Muhammadjonov, Abdulmannon Majidiy (– a'zolar) va boshqa zamonasining yetakchi, zukko ziyolilaridan iborat edi. “Chig'atoy gurungi”ning til va adbiyot bo'yicha amalga oshirishni rejalashtirgan asosiy maqsadi, o'zbek tili va adbiyotining tarixda tutgan yuksak mavqeyini tiklash, arab alifbosiga asoslangan yozuvni isloh qilish, arab, fors va rus tillaridan kirgan so'zlar o'rniga shevalardan olingan yoki tub turkiy so'zlarni qo'llash, turkiy tillar o'rtasidagi tarixiy rishtalarni mustahkamlash, terminologiyani shakllantirish kabi qator masalalardan iborat edi. Ular millat va mamlakat taraqqiyoti uchun juda muhim bo'lgan bu kabu muammolarni hal qilishda amaliy ishlarga kirishib, qisqa vaqtda juda yaxshi natijalarni qo'lga kirita boshlashdi. Yozma til imkon qadar soddalashib jonli tilga yaqinlashdi. Arab alifbosi isloh qilinib, ta'lim va nashr ishlarida qo'llanila boshladi. Tildagi chetdan kirgan so'zlar o'rniga shevalardan olingan so'zlarni qo'llash joriy etildi. Jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan asarlar muhokama qilinib, “Chig'atoy gurungi” rukni ostida matbuotda e'lon qilish yo'lga qo'yildi. “Chig'atoy gurungi”ning “Tong” nomli jurnali chop etila boshlandi.

Bu kabu milliy o'zlikni anglash, o'zining buyuk tarixiga asoslangan holda qardosh xalqlar bilan azaliy rishtalarni saqlab qolish va mustahkamlashga qaratilgan har qanday harakat sho'rolarning yagona millatni yaratishga yo'naltirilgan maqsadiga qarshi edi. Shu bois, sho'rolar mafkurasi asosidagi yangi yagona til, yangi yagona adabiyot, yangi yagona tarix va boshqalarni yaratish kerak edi. Leninning “birlashtirmoq uchun bo'lmoq” tamoyilini amalga oshirish uchun astoydil harakat qilishi, Stalinning esa 1925-yili milliy tillarning birlashib ketishi haqidagi qarashni kun tartibiga qo'yishi zahirida [Stalin 1925, 13] butun boshli xalqlarni o'z o'tmishidan uzoqlashtirish, asta-sekinlik bilan ularni yagona millat atrofida birlashtirish yotardi. Bolsheviklar, keyinchalik kommunistlar hokimiyatining barcha harakatlari shu tamoyil asosiga qurilgan edi.

Shu chog'larda butun o'tmishni salbiy baholash, mumtoz adabiyotni “feodal adabiyoti”, “burjua adabiyoti” deb talqin va targ'ib etish oddiy holga aylandi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur “zodagon”, “burjuaziya vakili” ekanligi haqida bir qancha maqolalar chop etildi. 1933-yili Alisher Navoiy “panturkistlarning bobosi” deb e'lon qilindi.

1920-yillarning 2-yarmidan o'tmishni ulug'layotgan jadidlar faoliyatini, chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti masalasini kun tartibiga qo'ygan Abdurauf Fitrat ijodini yoppasiga qoralash boshlandi. 1929-

yili “Qizil O‘zbekiston” gazetasining uchta sonida]. Boybo‘latovning “O‘zbek adabiyotida chig‘atoychilik” nomli maqolasi bosildi [Boybo‘latov 1929, 13-, 14-, 15-may]. Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” asari munosabati bilan yozilgan bu maqolada Abdurauf Fitrat va asarga so‘zboshi yozgan Otajon Hoshim marksizmni inkor qilishda, o‘tmishni ideallashtirishda, burjua millatchiligi g‘oyalarini tashviq etishda, ya’ni chig‘atoychilikda ayblandi, “Chig‘atoy gurungi” faoliyati keskin tanqid ostiga olindi.

Ushbu maqolaga javob tarzida yozilgan Abdurauf Fitratning “Yopishmagan gajaklar (O‘rtoq Boybo‘latovga ochiq xat)” nomli maqolasida o‘zbek adabiyotining barcha mumtoz namunalari salbiy baholash, “har kimni chig‘atoy” deb tanqid qilish urfga aylanayotgani qayd etilgan: “O‘rta Osiyoning olamg‘a ma’lum bir madaniyati bo‘lg‘an, bu madaniyatning turkiy asarlari qolg‘an. Bu asarlarning hammasig‘a birdan “axlatlar” deyish, sizning muhokamangizning kirligidan chiqqan yangi bir istiloh bo‘lsa kerak”, ...“sizda chig‘atoy so‘ziga qarshi qiziq bir holat paydo bo‘lgan, o‘zingizga yoqmag‘an har kimni chig‘atoy deb so‘kmoqchi bo‘lasiz” [Fitrat 1929, 15-, 16-sentyabr].

Shu tarzda chig‘atoy tili, chig‘atoy adabiyoti, “Chig‘atoy gurungi” faoliyatini tanqidiy baholash kompaniyasi boshlandi. J. Baybulatov [Байбулатов 1932], Miyon Buzruk Solihovning [Salhof 1933]ning shu mavzuga bag‘ishlangan asarlari maydonga keldi. Rus olimi A. K. Borovkov SSSR Fanlar akademiyasining nashrida “Chig‘atoy gurungi” va chig‘atoy tili haqida shunday qarashlarini bayon qildi: “В свое время известная националистическая группа «Чагатайское общество» (Чагатай гурунги) поставила себе задачей «возрождение» антинародного, феодального, литературного чагатайского языка, символа «былого величия» чагатаидской государственности. Чагатаисты подняли на щит все «древнетурецкое», «истинно-чагатайское»; на писателях XV — XVI вв. они пытались создать образцы литературного языка, новой советско-интернациональной терминологии пытались противопоставить «терминологию» среднеазиатского средневековья” [Боровков 1937, 62].

Abdurauf Fitrat faoliyati va ijodi tahlil qilingan bir ishda adib dramalari va she‘rlarining tili panturkistik asoslarda bo‘lganligi, eski o‘lik turkcha va chig‘atoycha so‘zlarni qo‘llab, rus va internatsional so‘zlardan qochganligi, bu esa jonli tildan uzoq bir til ekanligi haqida yuziladi:

“Fitrat dramalarining va she‘rlarining tili ham ko‘pincha

“Chig'atoy gurungi”da Fitrat o'zi boshida turib taraqqiy ettirgan panturkistik asoslarga suyangan. U na o'zbek, na tatar, na usmonli tilida yozar edi. Uning tili panturkistcha “turk tili” edi. Bu bir jihatdan bir necha mustaqil turk tillarini bir-biriga sun'iy ravishda qorishtirishdan iborat bo'lsa, ikkinchi jihatdan eski o'lik turkcha va chig'atoycha so'zlarni tor millatchilik asoslari bilan arxivdan qazib chiqarib, sun'iy ravishda ishlatishdan iborat edi. Shubhasizki, Fitrat bunda rus va internatsional so'zlardan o'tdan qochganday qochar edi. Shunday qilib, Fitrat “Chig'atoy gurungi”da til bobida o'zi asoslagan nazariyani o'zi ham amalga oshirib ko'radi. Shubhasizki, bu til – haqiqiy xalq tilining taraqqiyot qonunlariga qarshi qo'yilgan bir til. Bunday bir til, o'zbek mehnatkashlariga shubhasiz yot, u jonli tildan uzoq bir til edi. Ma'lumki, tarix bu tilni toptab o'tib ketdi. U til Fitratning asarlari bilan yaralib, o'sha asarlar bilan birga o'ldi” [Олимжон 1960, 238].

30-yillarning boshlaridan Sotti Husayn, Uyg'un, Otajon Hoshim, Hamid Olimjon va boshqalar tomonidan yozilgan maqolalarda, tadqiqotlarda chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti, “Chig'atoy gurungi” faoliyati keskin tanqidiy ruhda tahlil qilingan. Bunday qarashlar ilgari surilgan asarlarni yaratish sho'rolar davrida izchillik bilan davom ettirilgan. Ayniqsa, 1960-yili chop etilgan M. Vahobovning “O'zbek sotsialistik millati” deb nomlangan 536 sahifalik asari esa chig'atoychilik bilan bog'liq barcha ishlarni umumlashtirgani, yangi xulosalar taqdim etgani, bugungi kun qarashlari bilan aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqining buyuk tarixini sho'ro mafkurasi asosida soxtalashtirgani bilan ajralib turadi [Баҳобов 1960].

### **Pirimqul Qodirov va Muhammad Alining til va adabiyotimizning “chig'atoy tili”, “chig'atoy adabiyoti” deb nomlanishiga munosabatlari**

Mustaqillikka erishilgandan keyin “Chig'atoy gurungi” faoliyati, uning a'zolari ijodiga bo'lgan munosabat o'zgardi, salbiy qarashlarga barham berildi. Lekin o'zbek oydinlari, olimlari orasida “chig'atoy tili”, “chig'atoy adabiyoti” tushunchalari va ularning qo'llanishiga oid qarashlarda turlicha yondashuvlar saqlanib qoldi. Ayrim adabiyotchi, ba'zi til tarixi mutaxassislari orasida ham “chig'atoy tili”, “chig'atoy adabiyoti”ni o'zbek tili va adabiyotiga aloqasi masalasiga salbiy fikrlarni ilgari suruvchilar bo'ldi.

2005-yili yozuvchi Pirimqul Qodirovning keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan, mulohazalarga boy “Til va el: Temuriylar davridagi mumtoz adabiy tilimiz muammolari” kitobi chop etildi. Unda tilimizning boy tarixi mantiqiy izchillikda, aniq dalillar asosida

juda yaxshi yoritilgan. Shu bois asar o'sha davrda jamoatchilik tomonidan yaxshi kutib olindi, ijobiy baholandi. Lekin mazkur asarda "chig'atoy tili", "chig'atoy adabiyoti"ga, uning shu tarzda nomlanishiga e'tiroz bildirilib, ayrim dalillar keltirilgan, til va adabiyotimizning shunday nomlanishi, ba'zi olimlarning ishlari salbiy baholangan, jumladan: "Bir qator turkshunos olimlar "Muhabbatnoma" dostonini "Chig'atoy tilida yozilgan" degan fikrni oldinga suradilar". "Chig'atoy tili", "Chig'atoy adabiyoti" degan iboralarning hech qanday tarixiy va nazariy asosga ega bo'lmagan, sun'iy narsa ekanini aytgan edik. Afsuski, tilshunoslar orasida bu ibora hanuzgacha mumtoz o'zbek adabiy tiliga nisbatan tatbiq etib kelinmoqda" [Қодиров 2005, 43].

P. Qodirov "Til va el: Temuriylar davridagi mumtoz adabiy tilimiz muammolari" kitobida Chig'atoy nomining baland mavqega ko'tarilishi sho'ro davri bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi: "Sovet davrida Chig'atoy nomi Temuriylar davridagi madaniy yuksalishni xaspo'shlash uchun ataylab shunday baland mavqega ko'tarilgan edi" [Қодиров 2005, 45]. Adib shunday mulohazalaridan keyin chig'atoy tili haqida "bunday til, umuman, tarixda bo'lgan emas" [Қодиров 2005, 46], degan qat'iy xulosani beradi.

Muhammad Ali ham bir maqolasida P. Qodirov fikrlariga yaqin qarashlarini bildirgan. Adib "Chig'atoy tili", "Chig'atoy eli", "Chig'atoy adabiyoti" kabi terminlarning paydo bo'lishi haqida shunday fikrlarini bayon qiladi: "Ilgari tilimizning tarixi va qonuniyatlari, nomlanishi, adabiyotimizning davrlashtirilishi bilan asosan, V. Radlov, V. Bartold, N. Poppe, A. Samaylovich, F. Ko'prulizoda, A. Krimskiy, M. Masson singari xorijiy olimlar shug'ullanganini inobatga olsak, **"Chig'atoy tili", "Chig'atoy eli", "Chig'atoy adabiyoti"** kabi terminlarning paydo bo'lishi va tomir yoyishida, bunday qarashlarning dunyo ilm-fanida tarqalishida "chetdan kelib bizning tilimizga turli nomlar berishni yaxshi ko'radigan turkologlar"ning (P. Qodirov iborasi) xizmatlari katta bo'lgani anglashiladi" [Мухаммад Али 2014 а; 2014 б].

Maqolada V. Radlov, V. Bartold va A. Samaylovichning chig'atoy tili, chig'atoy adabiyotiga tegishli fikrlari keltiriladi va tahlil qilinadi.

Ayrim manbalardagi dalillar esa, yurtimiz, til va adabiyotimizning bunday nomlanishi, yuqorida qayd etilgan turkologlar faoliyati bilan bog'liq emasligini, dastlab eronliklar tomonidan qo'llanib, keyinchalik ovrupo ilm-faniga kirib borganligini ko'rsatmoqda: "O'zbek adabiyati O'rta Asiyada yashagan bashqa xalqlar adabiyati singari eskidir. Bu adabiyat shu chaqqacha sharqshunaslar tamanidan "chig'atay adabiyati" deb atalib keldi.

Buning tarixiy sababi bor.

Chingizning o'g'li Chig'atay hissasiga tushgan Mavaroun-nahrni qo'shni xalqlar, ko'prak eranlilar "chig'atay ulusi" deb atay boshladilar. Mana shu "chig'atay ulusi"da ishlatilgan tub turk xalqlarining adabiy tilini shu territo'riyaga nisbatan "chig'atay tili" deb ataganlar. Hatta keyin zaif bo'lsa-da, mo'ng'o'llar istilasiga qadar mavjud bo'lgan adabiyat ham, mo'ng'o'llarning hakimiyati O'rta Asiyada bitgandan so'ng Temuriylar davrida vayaga yetgan va eran adabiyati bilan musabaqa qilarliq darajaga ko'tarilgan adabiyat ham shu nam bilan ataldi, bu termin eranlilar orqali Yevro'paga ko'chib "chig'atay tili", "chig'atay adabiyati" ta'birlari tarixiy adabiyatda umumiy bir tusga kirib ketdi" [Sharafiddinov, Husajin. 1939, 9].

### **Chig'atoy tilida bitilgan qardosh tillardagi ayrim manbalar**

Qozoq adibi Abayning "Kitab tasdiq" ("Kitob tasdiq") nomli asari bor. Asarning 1905-, 1907-, 1910-yillardagi qo'lyozmalari saqlanib qolgan. Mutaxassislar ushbu qo'lyozmalarni qaysidir asarning qoralamasi deb o'ylashganligi sababli uzoq yillar davomida chop etilmagan. 2021-yili mavjud qo'lyozmalar asosida nashrga tayyorlangan [Абай 2021] "Kitab tasdiq" asari chig'atoy tilida yozilgan. Shu bois asar qo'lyozmasini nashrga tayyorlash, o'qish oson bo'lmagan. Asarni nashrga tayyorlovchilar uning tili, qo'llanishi, o'qilishi haqida quyidagilarni yozadilar: "Biz oqsoqol Murseyit Bikiulining qo'lyozmasi ustida tinimsiz ishladik. Dastlab chig'atoy (qadimgi turkiy) tilida yozilgan qo'lyozmani ko'rib hayron qoldik. Chunki ilgari bunday narsani o'qib ko'rganimiz yo'q edi. Yangi imlodagi yozuvni ham bemalol o'qiy oladigan Xitoydan kelgan birodarlarimiz ham bu yozuvni o'qiy olmaydigan bo'lib chiqishdi. Sof arab tilini suvday simiradigan ba'zi mullalarimiz ham "Bu yozuvga tishimiz o'tmaydi", deb tizginni orqaga tortishdi. Aytish kerakki, bu chig'atoychangiz bo'lak narsa ekan, deyishdi. Nihoyat, buyuk imomimiz Abdulloh Joldas uni bizga o'qib berdi. Abdulla og'amizning "Kitob tasdiq"ni o'qishi bizni 1893-yilda Vilgelm Tomsenning Orxon yodgorliklarini o'qishidan kam asir etgani yo'q [Абай 2021, 9].

"Abay "Kitob tasdiq" asarini qaysi tilda yozgan? Chag'atoy tilida. Yoki musulmon – turkiy, yoki qadimiy, yoki kitobiy tilda... Qozoq adabiy tilini o'zgartirgan Abay faqat "Kitob tasdiq" asarini shunday maxsus tilda yozgan. Sababi, "Kitob tasdiq" badiiy asar emas, balki ilmiy asar edi. Va chag'atoy tili butun turkiy xalqlar tomonidan ming yil davomida qo'llanilgan ham ilmiy, ham adabiy umumiy til edi.

O'z davrida Yusuf Balasog'uniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Burxoniddin Rabg'uziy, Sayfi Saroyi, Qodirg'ali Jaloyirlar shu tilda yozgan" [Абай 2021, 6 – 7].

Taniqli qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov chig'atoy tili va Abayning bu tilni bilish sabablari haqida shunday ma'lumotlarni bergan: "Turkiy til ma'lum darajaga yetdi. Bu til kitob tili, adabiy til hisoblangan. Turkiy tilning asosini o'sha paytda butun turkiy mamlakat uchun umumiy bo'lgan chig'atoy adabiyoti tashkil etgan... Abay bolaligida uyida turk tilini o'rgangan. Shuning uchun Abayning turk tilida o'qishi madrasadagi uch yil bilan cheklanmagan. Abay Ahmad Rizo madrasasida turk va arab tillarini o'rgangan" [Әуезов 1988, 133].

"Kitab tasdiq" asari hajman katta emas, 19 sahifa. Asar matnidagi qozoq o'quvchisi uchun tushunarsiz bo'lgan 344 ta so'zga izoh berilgan [Абай 2021, 40–66]. Izohlangan so'zlar orasida **фэрзэнд** (farzand), **адам** (odam), **йадгар** (yodgor), **ихлас** (ixlos), **муҳаббат** (muhabbat), **ъилм** (ilm), **ъақл** (aql), **сəбəб** (sabab), **ўстəз** (утоз), **тəлəб** (talab), **Аллəһ** (Alloh), **дуниə** (dunyo), **шəкл** (shakl), **умід** (умид), **дəлил** (dalil), **жəн** (jon), **гүзəл** (go'zal), **асыл** (asl), **кəмəлəт** (kamolot), **хəқиқəт** (haqiqat), **рəст** (rost), **дүшмəн** (dushman), **дін** (din), **дуст** (do'st), **құмəр** (qimor), **һəр** (har), **хикмəт** (hikmat), **хəммə** (hamma), **сифəт** (sifat), **мəл** (mol), **ъиззəт** (izzat), **хұрмəт** (hurmat), **əгəр** (agar), **лəйық** (loyiq), **бəндə** (banda), **ислəм** (islom), **имəн** (iymon), **пəйғəмбəр** (payg'ambar), **фəйдə** (foйда), **мəънə** (ma'no), **тəслим** (taslim), **шəрт** (shart), **қудрəт** (qudrat), **ирəдə** (iroda), **қəлəм** (qalam), **зəррə** (zarra), **ұлуғ** (ulug'), **ирəдə** (iroda), **мұхтəж** (muhtoj), **тəъриф** (ta'rif), **мүмкін** (mumkin), **хəким** (hakim), **қəдим** (qadim), **шəрх** (sharh), **ғəфлəт** (g'aflat), **нəчəр** (nochor), **хизмəт** (xizmat), **хисəб** (hisob), **ботыл** (botil) kabi so'zlar bor. Izohlangan so'zlarning aksariyati bugungi o'zbek tilida faol qo'llanadi. "Kitab tasdiq" asari tilini qozoq yozuvchisi Sobit Muqanov "Abayning nasihat so'zlari toza qozoq tilida yozilgan" deb baholagan [Абай 2021, 5], bu til esa yuqorida qayd etganimiz kabi chig'atoy tili edi.

Xuddi shunday holatni tatar jadidlaridan Fotih Karimiyning 1996-yili Qozon shahrida nashr qilingan "Mirza qizi Fotima" nomli saylanmasida ham kuzatish mumkin. Kitobning har sahifasida to'rttadan yigirma uchtagacha so'z yoki birikmaga izoh berilgan, ularning ko'pchiligi bugungi o'zbek tilida qo'llanmoqda [Кəрими 1996].

Qirg'izlarning "Manas" eposi ham 1920-yili chig'atoy tilida

e'lon qilingan. Ushbu nashr 2025-yili Bishkek shahrida qayta chop etildi.

### **Xulosa**

Yuqoridagi fikr va mulohazalar, ko'pchilik mualliflarning asarlarida keltirilgan dalillar asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

1. Rui Gonsales de Klavixo, Ismoil Gasprinskiy, Qayum Nosiriy, A.Y.Krimskiy, Fuod Ko'prulu, Ali Karaman o'g'li, Herman Vamberi, Y.Ekman, Zaki Validiy To'g'on kabi xorijlik olim va oydinlar tomonidan chig'atoy tili va chig'atoy adabiyotining shakllanishi, taraqqiyoti hamda uning turk xalqlari adabiyoti va tili o'rtasidagi mavqeyi haqidagi qarashlar bilan Abdurauf Fitrat ilgari surgan fikrlari deyarli bir xil.

2. "Chig'atoy ulusi", "chig'atoy tili", "chig'atoy adabiyoti" tushunchalari ovrupolik yoki rus olimlari tomonidan kiritilmagan.

3. "Chig'atoy ulusi", "chig'atoy tili", "chig'atoy adabiyoti" atamalarini dastlab eronliklar qo'llagan. Bu ibora Temuriylargacha amalda ishlatilmagan, Temuriylar davrida ommalashgan.

4. Chig'atoy tilining ildizlari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asaridagi xoqoniy turkchasiga, "Qutadg'u bilig", "Hibbat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviy hikmatlari tiliga borib taqaladi. Chig'atoy tilida bitilgan dastlabki asar – Burhoniddin Rabg'uziyning "Qissas ul-anbiyo"sidir.

5. Chig'atoy tili har tomonlama rivojlanib, shakllanib, Temuriylar davrida to'la takomillashgan, mukammal til darajasiga ko'tarilgan. Alisher Navoiy asarlari bilan turk xalqlari yashaydigan hududlarga tarqalgan, boshqa qardosh xalqlar tillarining rivojlanishiga katta ta'sir qilgan.

6. Chig'atoy tili umumturk tili darajasiga ko'tarilib, turk xalqlarining amalda qo'llanadigan adabiy tillariga aylangan. Turk hukumatlarining, xonlarining, beklarining, aholisiningish muomala va yozuv tili, hatto diplomatik til o'laroq ham qo'llangan. Madrasalardagi darslar chig'atoy tilida o'tilgan. Bu til XX yuzyillik boshlarigacha amalda umumturk adabiy tili sifatida qo'llanib kelgan.

7. Turk xalqlarida chig'atoy tilida asarlar yaratilgan. Turkiyada chig'atoy tilida she'rlar yozilgan. Abayning 1905-yildagi "Kitab tasdiq", tatar jadidlaridan Fotih Karimiyning 1996-yili Qozon shahrida nashr qilingan "Mirza qizi Fotima" nomli saylanmasiga kirgan asarlari, qirg'izlarning 1920-yili nashr qilingan "Manas" eposi chig'atoy tilida bitilgan.

8. Chig'atoy tili leksikasi arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar miqdorining ko'pligi bilan xarakterlanadi.

9. XX yuzyillikning 20-yillari o'rtalaridan bolsheviklarning mafkuraviy kurashlari asosida chig'atoy tili "millatchilarning tili", "panturkistlarning tili" tarzida talqin qilina boshlangan. Bu jarayon mustaqillik davrigacha davom etdi.

10. Ushbu dalillar Pirimqul Qodirov va Muhammad Alilar tomonidan chig'atoy tili haqidagi ilgari surilgan fikrlar asosli emasligini ko'rsatadi.

### Adabiyotlar

- Abdurauf Fitrat. 1929. "Yopishmagan gajjaklar (O'rtoq Boybo'latovga ochiq xat)." *Qizil O'zbekiston gazetasi*, 15–16-sentyabr.
- Ahatanhel Krymsky. 1930. *Тюрки, їх мови та літератури. І тюркські мови*. Вип. II. Київ.
- Abdurauf Fitrat. 2000. *Танланган асарлар*. II жилд. Илмий асарлар. Тошкент: Маънавият.
- Abdurauf Fitrat. 2006. *Танланган асарлар*. IV жилд. Тошкент: Маънавият.
- Боровков, А. 1937. "О некоторых очередных вопросах орфографии узбекского литературного языка." *Записки института востоковедения Академии наук СССР* VI. Москва–Ленинград: Издательство Академии Наук СССР.
- Boybo'latov, J. 1929. "O'zbek adabiyotida chig'atoychilik." *Qizil O'zbekiston gazetasi*, 13–15-may.
- Байбулатов, Дж. 1932. *Чагатаизм – пантюркизм в узбекской литературе*. Москва–Ташкент: Объединение государственных издательств Среднеазиатское отделение.
- 1921-yil yanvarda bo'lg'on birinchi o'lka o'zbek Til va imlo qurultoyining chiqarg'on qarorlari. 1922. Toshkent.
- János Eckmann. 1958. "Çağatay dili hakkında notlar." *Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten*. Ankara.
- Hamid Olimjon. 1960. *Танланган асарлар*. Учинчи том. "Фитратнинг адабий фаолияти ҳақида." Тошкент: ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти.
- Ismail Gasprinski. 1888. "Turkiy til shevalari." *Tarjimon gazetasi*, 18-aprel.
- Ismail Gasprinski. 1911. "Chig'atoy tili." *Tarjimon gazetasi*, 4-mart.
- Xudoyberdiyev, J. 2026. "Chig'atoy tiliga oid ayrim qarashlar haqida." *Ma'rifat gazetasi*, 8-aprel.
- Хаков, В. 1972. *Татар милли әдәби теленең барлыкка килуе һәм усеше*. Казан.
- Joseph Stalin. 1925. *Sharq xalqlari dorilfununing siyosiy vazifalari*. Moskva.
- János Eckmann. 1996. *Harezm, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi üzerine araştırmalar*. Ankara.
- Tüymebayev, J., and M. Yeskeyeva. 2017. *Türkolojini tarihi-dil bilisel esaslari*. Karamanlıoğlu, A. Fehmi. 1986. *Türk dili*. Istanbul.
- Китаб тасдиқ. 2021. Алматы: Қазақ университети.
- Кәрим, Ф. 1996. *Морза кызы Фатыйма. Сайланма әсәрләр*. Казан:

- Татаристан китап нәшрияты.
- Кримський А.Е. 1930. *Тюрки, їх мови та літератури*. Les Turks, leurs langues et litteratures. I. Тюркські мови. 176 – 183. Київ: 3 друкані Всеукраїнської Академії Наук.
- Mehmet Fuat Köprülü. 1986. *Türk edebiyatı tarihi*. 2-basım. Istanbul: Ötüken.
- Mukhtar Aueзов. 1988. *Абайтану (лекция). Абайтанудын арнаулы курсы; Абайтанудан жарияланбаған материалдар*. Алматы: Ғылым.
- Mahmudxo'ja Behbudiy. 2021. *Танланган асарлар*. II жилд. Тошкент: Akademnashr.
- Muhammad Ali. 2014a. “Тарих сабоқларидан хулоса чиқариб яшайлик ёхуд адабиётимизнинг яқин ўтмишига бир назар.” *Халқ сўзи* газетаси, 8 ноябрь.
- Muhammad Ali. 2014b. “Тарих сабоқларидан хулоса чиқариб яшайлик ёхуд адабиётимизнинг яқин ўтмишига бир назар.” *O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi*, 14-noyabr.
- Ваҳобов, М. 1960. *Ўзбек социалистик миллати*. Тошкент: Фан.
- Ruy González de Clavijo. 2019. *Амир Темур Испания элчиси нигоҳида*. Тошкент: Zamin nashr.
- Pirimqul Qodirov. 2005. *Тил ва эл: Темурийлар давридаги мумтоз адабий тилимиз муаммолари*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Нормуродов, Ў. 1982. “Вамбери ва унинг хрестоматияси.” *ЎТА* 1.
- Sal'hof, M. 1933. *Ўzbek adabiyatida millatcilik korynişlari*. Taşkent: Ўz SŞÇ dāvlāt nāşriyatъ.
- Şarafiddinov, A., and S. Husajn. 1939. *O'zbek adabiyati. 15 yil icida o'zbek so'vet adabiyati*. Taşkent: Nafis adabiyat davlat nāşriyati.
- Zeki Velidi Togan. 1981. *Bugünkü Türkili (Türkistan) ve yakın tarihi*. 2-baskı. Istanbul.
- ئابدۇرەئوپ پولات چاغاتاي ئۇيغۇر تىلى ھەققىدە مۇپسسل بايان مللەتلەر نەشرىياتى بېيجىڭ 2004.

## Some Remarks on the Chigatai Language

Jura Khudoyberdiev<sup>1</sup>

### Abstract

The term *Chagatai language* corresponds to what is referred to in contemporary Uzbek linguistics as the *Old Uzbek language*. Numerous scholarly studies have been devoted to the analysis of the linguistic features characteristic of Chagatai. Today, this subject continues to attract considerable attention in international academic circles, including

<sup>1</sup> Jura O. Khudoyberdiev – Senior Lecturer, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: jxudayberdi@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5362-0356

For citation: Khudoyberdiev, J.O. 2026. “Some remarks on the chigataoy language”. *Golden Scripts* 1: 114 – 134.

conferences, symposiums, seminars, and other scholarly forums held abroad. In such contexts, the designation *Old Uzbek language* is rarely employed; instead, the term *Chagatai language* is predominantly used. A review of foreign scholarship dealing with *Chagatai language* and *Chagatai literature* demonstrates that researchers have generally sought to investigate the essential characteristics of this linguistic and literary tradition objectively and have arrived at well-founded conclusions.

This article presents, for the first time, a comparative analysis of selected views and scholarly opinions expressed by both Uzbek and foreign researchers concerning the concepts of *Chagatai language* and *Chagatai literature*. By examining diverse academic approaches to these terms, the study highlights their historical development, scholarly interpretations, and significance within the broader context of Turkic linguistic and literary studies.

**Key words:** *Chigatai language, Chigatai literature, Timurid era, Alisher Navoi, Abdurauf Fitrat, Rui Gonzalez de Clavijo, Ismail Gasprinsky, Kayum Nasiri, Herman Vamberi, Y. Ekman, Zaki Validi Tugan.*

### References

- Abdurauf Fitrat. 1929. "Yopishmagan gajjaglar (O'rtoq Boybo'latovga ochiq xat)." *Qizil O'zbekiston gazetasi*, 15–16-sentyabr.
- Ahatanhel Krymsky. 1930. *Tyurki, yix movi ta literaturi. I tyurkski movi*. Vip. II. Kiyev.
- Abdurauf Fitrat. 2000. *Tanlangan asarlar*. II jild. Ilmiy asarlar. Toshkent: Ma'naviyat.
- Abdurauf Fitrat. 2006. *Tanlangan asarlar*. IV jild. Toshkent: Ma'naviyat.
- Abduraup Po'lat. 2004. *Chag'atoy uyg'ur tili haqida mufassal bayon*. Beyjing: Millatlar nashriyoti.
- Borovkov, A. 1937. "O nekotorig ocherednix voprosax orfografii uzbekskogo literaturnogo yazika." *Zapiski instituta vostokovedeniya Akademii nauk SSSR* VI. Moskva–Leningrad: Izdatelstvo Akademii Nauk SSSR.
- Boybo'latov, J. 1929. "O'zbek adabiyotida chig'atoychilik." *Qizil O'zbekiston gazetasi*, 13–15-may.
- Baybulatov, Dj. 1932. *Chagataizm – pantyurkizm v uzbekskoy literature*. Moskva–Toshkent: Ob'yedineniye gosudarstvennix izdatelstv Sredneaziatskoye otdeleniye.
- 1921-yil yanvarda bo'lg'on birinchi o'lka o'zbek til va imlo qurultoyining chiqarg'on qarorlari. 1922. Toshkent.
- János Eckmann. 1958. "Chag'atay tili haqida notlar." *Turk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten*. Ankara.
- Hamid Olimjon. 1960. *Tanlangan asarlar*. Uchinchi tom. "Fitratning adabiy faoliyati haqida." Toshkent: O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti.
- Ismail Gasprinski. 1888. "Turkiy til shevalari." *Tarjimon gazetasi*, 18-aprel.
- Ismail Gasprinski. 1911. "Chig'atoy tili." *Tarjimon gazetasi*, 4-mart.

- Xudoyberdiyev, J. 2026. "Chig'atoy tiliga oid ayrim qarashlar haqida." *Ma'rifat* gazetasi, 8-aprel.
- Xakov, V. 1972. *Tatar milliy adabiy tilining barliqqa keluvi ham usishi*. Qozon.
- Joseph Stalin. 1925. *Sharq xalqlari dorilfununing siyosiy vazifalari*. Moskva.
- János Eckmann. 1996. *Harezm, Qipchoq va Chag'atoy turkchasi ustiga tadqiqotlar*. Ankara.
- Tüymebayev, J., and M. Yeskeyeva. 2017. *Turkologiyani tarixi-dil bilisel asoslari*.
- Karamanlıoğlu, A. Fehmi. 1986. *Turk tili*. Istanbul.
- Kitab tasdiq. 2021. Almati: Qozoq universiteti.
- Karimi, F. 1996. *Morza qizi Fatima. Saylanma asarlar*. Qozon: Tatariston kitob nashriyoti.
- Krimskiy A.Ye. 1930. *Tyurki, ix movi ta literaturi*. Les Turks, leurs langues et litteratures. I. Tyurkskı movi. 176 – 183. Kïiv: 3 drukani Vseukraïnskoï Akademii Nauk.
- Mehmet Fuat Köprülü. 1986. *Turk adabiyoti tarixi*. 2-bosma. Istanbul: Otuken.
- Mukhtar Auezov. 1988. *Abaytanu (leksiya). Abaytanudın arnawli kursi; Abaytanudan jariyalanbag'an materiallar*. Almati: G'ilim.
- Mahmudxo'ja Behbudiy. 2021. *Tanlangan asarlar*. II jild. Toshkent: Akademnashr.
- Muhammad Ali. 2014a. "Tarix saboqlaridan xulosa chiqarib yashaylik yoxud adabiyotimizning yaqin o'tmishiga bir nazar." *Xalq so'zi* gazetasi, 8-noyabr.
- Muhammad Ali. 2014b. "Tarix saboqlaridan xulosa chiqarib yashaylik yoxud adabiyotimizning yaqin o'tmishiga bir nazar." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati* gazetasi, 14-noyabr.
- Vahobov, M. 1960. *O'zbek sotsialistik millati*. Toshkent: Fan.
- Ruy González de Clavijo. 2019. *Amir Temur Ispaniya elchisi nigohida*. Toshkent: Zamin nashr.
- Pirimqul Qodirov. 2005. *Til va el: Temuriylar davridagi mumtoz adabiy tilimiz muammolari*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Normurodov, Y. 1982. "Vamberi va uning xrestomatiyasi." *O'TA* 1.
- Salhof, M. 1933. *O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari*. Toshkent: O'z SSR davlat nashriyoti.
- Sharafiddinov, A., and S. Husayn. 1939. *O'zbek adabiyoti. 15 yil ichida o'zbek sovet adabiyoti*. Toshkent: Nafis adabiyot davlat nashriyoti.
- Zeki Velidi Togan. 1981. *Bugungi Turkili (Turkiston) va yaqin tarixi*. 2-bosma. Istanbul.